

2021-yil yanvar-sentabr oylari davomida "O'zkiyosanoat" AJ tizimida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash yuzasidan olib borilgan ishlar to'g'risida ma'lumot

<https://special.uzkiyosanoat.uz/oz/interactive/appeals-analysis/report-202109>

2021-yil yanvar-sentabr oylari davomida "O'zkiyosanoat" AJ ijro apparatiga tushgan jami murojaatlar soni 393 tani tashkil etib, 96 tasi yuridik shaxslardan, 297 tasi jismoniy shaxslardan kelib tushgan. Jami murojaatlarning 73 tasi qanoatlantirilgan, 307 tasi bo'yicha tushuntirish berilgan, qolgan 13 tasi ko'rib chiqilmoqda.

Murojaatlarning 128 tasi ishga kirish, 48 tasi homiylik yordami ko'rsatish, 39 tasi qonun va tartib buzilishlari, 32 tasi hamkorlik qilish, 25 tasi mineral o'g'it sotib olish, 9 tasi ish haqini oshirish, 7 tasi imtiyozli nafaqaga chiqish, 4 tasi debitor va kreditor qarzdorlik, 1 tasi ta'lim sohasi, 100 tasi boshqa masalalar yuzasidan kelib tushgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali 2021-yil yanvar-sentyabr oylari davomida "O'zkiyosanoat" AJga jami 156 ta murojaat kelib tushgan. Shundan 27 tasi qanoatlantirilgan, 122 tasi bo'yicha tushuntirish berilgan, 7 tasi ko'rib chiqilmoqda. Murojaatlarning aksariyati Navoiy, Farg'ona, Qashqadaryo va Toshkent viloyatlarida yashovchi fuqarolarga to'g'ri keladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari orqali 2021-yil yanvar-sentyabr oylari davomida "O'zkiyosanoat" AJga jami 7 ta murojaat kelib tushgan. Shundan 2 tasi ijobiy hal qilingan, 5 tasi bo'yicha tushuntirish berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi orqali 2021-yil yanvar-sentyabr oylari davomida "O'zkiyosanoat" AJga jami 50 ta murojaat kelib tushgan. Murojaatlarning aksariyati yuridik shaxslarga tegishli bo'lib, ularning 15 tasi tijorat takliflari, 11 tasi mineral o'g'it sotib olish yuzasidan, 9 tasi ishga joylashish, 15 tasi boshqa masalalar yuzasidan kelib tushgan.

2021-yilning 9 oyi davomida "O'zkiyosanoat" AJ boshqaruv raisi tomonidan "Farg'onaazot" AJda va "Dehqonobod kaliy zavodi" AJda, "O'zkiyosanoat" AJ boshqaruv raisining birinchi o'rinbosari tomonidan "Navoiyazot" AJda va Dehqonobod tumani Beshbuloq MFYda hamda boshqaruv raisining iqtisod va moliya bo'yicha o'rinbosari tomonidan "Qo'ng'irotda soda zavodi" MCHJ QKda Sayyor qabullar o'tkazilgan. Sayyor qabular davomida 32 nafar fuqaro qabul qilingan.

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari jamiyatning ijro apparatida ko'rib chiqilgan hamda qonunda belgilangan muddatlarda murojaat mualliflariga javob berilgan.